

**O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki
faoliyatida yuzaga kelgan muhim faktlar**

07.07.2023 y.

EMITENTNING NOMI							
1.	To'liq:						
	O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki						
	Qisqartirilgan:						
2.	Xalq banki						
	Birja tikerining nomi:						
	XBBK (UZ7055620007)						
	ALOQA MA'LUMOTLARI						
	Joylashgan yeri: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Qatortol ko'chasi, 46.						
3.	Pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi, 100096, Toshkent sh., Qatortol ko'chasi, 46.						
	Elektron pochta manzili: info@xb.uz						
	Rasmiy veb-sayti: www.xb.uz						
MUHIM FAKT TO'G'RISIDA AXBOROT							
Muhim faktning raqami:	06						
Muhim faktning nomi:	Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar						
Umumiy yig'ilish turi:	Umumiy yig'ilish						
Umumiy yig'ilish o'tkazish sanasi:	27.06.2023						
Umumiy yig'ilish bayonnomasi tuziligan sana:	07.07.2023						
Umumiy yig'ilish o'tkazilgan joy:	Toshkent shahar, Qatortol ko'chasi, 46-uy.						
Umumiy yig'ilish kvorumi:	100,0%						
T/r	Ovoz berishga qo'yilgan masalalar	Ovoz berish yakunlari					
		yoqlash		qarshi		betaraflar	
%	soni	%	soni	%	soni		
1	Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruving yillik hisoboti hamda rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rيلayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlarini eshitish;	100%	7 348 301 908	0	0	0	0
2	Bankning 2022-yil yakunlari bo'yicha tashqi auditor yillik hisobotini eshitish va bankning 2022-yil yakuni bo'yicha moliyaviy hisobotini tasdiqlash;	100%	7 348 301 908	0	0	0	0
3	Kuzatuv kengashi tomonidan taklif etilayotgan Xalq bankining strategik maqsadlari va ularga erishish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash;	100%	7 348 301 908	0	0	0	0
4	Bank ustav kapitali miqdoriga o'zgartirish kiritishni ko'rib chiqish;	100%	7 348 301 908	0	0	0	0
5	Bankning 2022-yil faoliyati yakuni bo'yicha foydasi (yoki zarari)ni taqsimlash;	100%	7 348 301 908	0	0	0	0

6	Bankning 2022-yil yakunlari bo'yicha korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalarini ko'rib chiqish;	100%	7 348 301 908	0	0	0	0
7	Kuzatuv kengashi va uning tarkibidagi qo'mitalar Raisi va a'zolari faoliyatini baholash natijalarini ko'rib chiqish;	100%	7 348 301 908	0	0	0	0
8	Bank Kuzatuv kengashi a'zolarini 3 yil muddatga saylash;	100%	7 348 301 908	0	0	0	0
9	Bank Boshqaruvi raisi va Boshqaruva a'zolari lavozimlariga nomzodlarni mehnat shartnomasining har yili uzaytirilishini inobatga olgan holda 3 yil muddatga saylash (tayinlash);	100%	7 348 301 908	0	0	0	0
10	Bankda 2023-yil ish faoliyati yakunlari bo'yicha auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini tanlash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdorini belgilash va u bilan shartnoma tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;	100%	7 348 301 908	0	0	0	0
11	Bankning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;	100%	7 348 301 908	0	0	0	0
12	Xalq banki Ustaviga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarini tasdiqlash;	100%	7 348 301 908	0	0	0	0
13	Bankning e'lon qilingan aksiyalarining eng ko'p miqdorini belgilash	100%	7 348 301 908	0	0	0	0
14	Bankning yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Boshqaruvi to'g'risida"gi Nizomlarini tasdiqlash	100%	7 348 301 908	0	0	0	0

Umumiylig'li hisobotlarning qarorlarning to'liq bayoni:

3.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvining yillik hamda rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilib qilinsin va tasdiqlansin (2, 3 va 4-ilovalar). 2. Bank Boshqaruvi zimmasiga, 2023-yil uchun tasdiqlangan Biznes reja ko'rsatkichlariga erishish yuzasidan tegishli ishlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin. 3. Kuzatuv kengashi zimmasiga, mazkur qaror ijrosini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.
2	Bankning Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) asosidagi, "Ernst & Young" MCHJ tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan auditdan o'tkazilgan bankning 2022-yil yakunlari bo'yicha konsolidatsiyalashgan hisoboti 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3	<ol style="list-style-type: none"> 1. Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvining bank strategiyasi ijrosi yuzasidan ko'rilib qilinsin va rejallashtirilgan chora-tadbirlari ma'lumot uchun qabul qilinsin (6-ilova). 2. Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi zimmasiga bank strategiyasi ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni bo'yicha ma'lumotlarni berib borilishi ta'minlansin.
4	<ol style="list-style-type: none"> 1. Bank ustav kapitali miqdoriga o'zgartirish kiritish masalasini ko'rib chiqish keyinga qoldirilsin va Bankning 2023-2025 yillarga mo'ljallangan rivojlantirish strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarning ijrosi yakuni bo'yicha aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qayta kiritilsin. 2. Bank Boshqaruvi zimmasiga bankning avvalgi yillardagi zararlarini qoplash maqsadida, rivojlantirish strategiyasida belgilangan sof foyda ko'rsatkichlarini ta'minlash vazifasi yuklatilsin. 3. Kuzatuv kengashi zimmasiga, mazkur qaror ijrosini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.
5	Bank Kuzatuv kengashining bank foydasi (yoki zarari)ni taqsimlamaslik to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin va tasdiqlansin (7-ilova).
6	<ol style="list-style-type: none"> 1. Bankning 2022-yil yakunlari bo'yicha korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalarini qabul qilinsin (8-ilova). 2. Bank Boshqaruvi zimmasiga, Kuzatuv kengashi tavsiyalari va ilg'or xorijiy tajribalar asosida bankda korporativ boshqaruv tizimini yanada yaxshilash choralarini ko'rish vazifasi yuklatilsin.

	1. Kuzatuv kengashi va uning qoshidagi Qo‘mitalar raisi va a’zolarining 2022-yil faoliyati yakunlari bo‘yicha baholash natijalari tasdiqlansin (9-ilova).
7	2. Kuzatuv kengashi zimmasiga, Xalq banki Kuzatuv kengashi va uning tarkibidagi qo‘mitalar Raisi va a’zolari faoliyatini baholash bo‘yicha yangi tartib loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash maqsadida aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga kiritish vazifasi yuklatilsin.
8	Bank aksiyadorlarining 2022-yil 29-iyundagi umumiy yig‘ilishida saylangan amaldagi Kuzatuv kengashi a’zolarining vakolati muddati Kuzatuv kengashining yangi tarkibi saylangunga qadar uzaytirilsin va faoliyatini davom ettirishi belgilansin (10-ilova).
9	Xalq bankingning quyidagi Boshqaruvi Raisi va Boshqaruv a’zolarining vakolat muddatlarini va ular bilan tuzilgan shartnomalarni bir yil muddatga uzaytirilishi tasdiqlansin: Sh.X. Atabayev – bank Boshqaruvi raisi; Z.M. Azimov – Boshqaruv raisining birinchi o‘rbosari; T.Z. Rahmonov – Boshqaruv raisi o‘rbosari; F.A. Ruziyev – Boshqaruv raisi o‘rbosari; D.O. Kutliyev – Boshqaruv raisi o‘rbosari; G.A. Rashidova – Boshqaruv raisi o‘rbosari; N.Z. Tashmatov – Yuridik department direktori; K.B. Shernazarov – Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori – Bosh buxgalter.
10	Bankda 2023-yil yakunlari bo‘yicha majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun “Ernst & Young” MCHJ mustaqil tashqi auditorlik tashkiloti tanlansin va uning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori 3 542 560 ming so‘m (12 % QQS bilan birqalikda) etib belgilansin hamda shartnoma amaldagi qonunchilikda belgilangan talablar asosida tuzilishi tasdiqlansin.
11	Bankning yangi tashkiliy tuzilmasi 20-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
12	1. “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Ustaviga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘srimchalar” 21-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. 2. Bank Boshqaruvi zimmasiga, bank Ustaviga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘srimchalarni belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan ro‘yxatdan o‘tkazish vazifasi yuklatilsin.
13	Bank ustav kapitalini oshirish maqsadida, bank chiqarishi mumkin bo‘lgan e’lon qilingan (qo‘srimcha) aksiyalar summasi 12 651 698 092 000 (o‘n ikki trillion olti yuz ellik bir milliard olti yuz to‘qson sakkiz million to‘qson ikki ming) so‘m bo‘lgan, nominal qiymati 1 000 (bir ming) so‘mlik 12 651 698 092 (o‘n ikki milliard olti yuz ellik bir million olti yuz to‘qson sakkiz ming to‘qson ikki) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalarga oshirish tasdiqlansin.
14	Bankning yangi tahrirdagi “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankingning Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi va “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki Boshqaruvi to‘g‘risida”gi Nizomlari tasdiqlansin (22, 23 va 24-ilovalar).
Ustavga kiritilayotgan o‘zgartirish va (yoki) qo‘srimchalarning matni	
-	